

BOSHLANG`ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Tursunova Hosiyatxon Sayfutdinovna

Farg`ona viloyati,Oltiariq tumani 24- sonli umum ta`lim maktabi
boshlang`ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang`ich sinflarda ona tili fanida qo'llaniladigan va o`quvchilarni faolligini oshiradigan metodlar, didaktik materiallar va enerjayzerlar aks ettirilgan.

Kalit so`zlar: metodlar, innovatsion, o`quvchi, dars, interfaol, samarali, mavzu

Mamlakatimizda ta`lim sohasida olib borilayoygan yangilanish, modernizatsiya jarayoni uzlusiz ta`lim tizimining barcha bo`g`inlarida zamon talablariga javob bera oladigan yetuk mutaxassislarini , ularda yangi bilim va ko`nikmalarini shakllantirishni, o`z ustida ishlash, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan maqsadli foydalana olish mahoratini oshirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, boshlang`ich sinf o'qituvchilarini hozirgi kun talablari asosida ona tili fanini o`qitish metodikasiga yangich yondashuvni taqozo etmoqda.

Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his, kechinmalarni ifodalashda muhim o`rin tutadi. Til jamiyat a`zolarining bir-biri bilan o`zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalik aniq, ta`sirchan ifodalanadi. Maktabda ona tilini chuqur o`rganish zarurati tilning mana shu asosiy vazifalaridan kelab chiqadi. Ona tili - nutq o`qish va yozish sohasidagi ko`nikma va malakalar o`quvchilar o`quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o`qish ko`nikmalarini egallash bilan, birinchi navbatda o`z ona tilini o`rganishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning, aql -idrokning kalitidir. Ona tili boshqa fanlarni vositasi hamdir, jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o`rganiladi, Demak , ona tili bolaning umumiyl kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg`otishda ham alohida rol o`ynaydi.

Shu o`rinda,boshlang`ich sinflarda qo'llanishi boshlanayotgan yangi tamoyil haqida to`xtalib o`tsak. Yangi innovatsion yondashuvni O`zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o`rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta`limi ilg`or mamlakatlar o`quvchilarda 4K tamoyilini o`z ichiga olgan XXI asr ko`nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi.

4K nima degani?

4K yondashuvi o‘z nomi bilan 4 ta tamoyilni o‘z ichiga oladi:

- 1.Kritik (tanqidiy) fikrlash.
- 2.Kreativ fikrlash:
- 3.Kommunikativlik.
- 4.Kollaboratsiya



Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o‘quvchilarining axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi.



Kreativ fikrlash: O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.



Kommunikativlik: O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi.



Kollaboratsiya: Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rirlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda "4K"ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti.

Ona tili o'qitish metodikasi ona tilining ma'lum qismini amaliy, ma'lum qismini nazariy egallashni nazarda tutadi. Shuning uchun ona tili – lingvistika metodikasining muhim asosi hisoblanadi. Savod o'rgatish metodikasini ishlashda fonetika, fonologiya, grafika asos bo'ladi. Lug'at ishini tashkil etishda leksikologiya, so'z tarkibi, so'z yasalishini o'rganishda so'z yasalishi, etimologiya, grammatika asos bo'lsa, morfologiya va sintaksis til qurilishi haqida tushuncha hosil qilishda, tug'un yozuvga o'rgatishga, orfografiya nazariyasiga asoslanadi.

Muammoli o'qitish metodiga amerikalik pedagog va psixolog Dyun 1894 - yilda asos solgan. Bu metodning maqsadi ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishga yordam berishgina emas, balki o'quvchilarning bilish qobiliyatini ham rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish hamdir. Bunda suhbat davomida o'qituvchining topshirig'i bilan o'quvchining oldiga biror muammo qo'yiladi va darsda muammoli vaziyat yaratiladi. Bu muammoni o'quvchi oldin egallagan bilimlari asosida hal etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hayotiy tajribalari kamligi sababli o'qituvchi muammoni hal qilishga yordamlashuvchi savollar beradi. Muammoni o'quvchi hal qila olrnasa, uni o'qituvchining hal qilishiga to'g'ri keladi. Shuning uchun boshlang'ich sinfda muammoli o'qitish metodi *yarim izlanishli muammoli metod* deb ham yuritiladi. Masalan, muammoli o'qitish metodini leksiksemantik va grammatik/nashqlarni tashkil etishda ham qo'llash mumkin. Bu metoddan 1smfdan boshiab foydalanish mumkin. Bu metod „Tovush va harf“ mavzusini o'rganayotganda tovushning so'z ma'nosini

farqlashdagi vazifasini tushuntirishda, „So'z ma'nosi», „Nutq va gap» mavzularini o'rghanishda ham qo'llanadi. Masalan, „So'z ma'nosi» mavzusini o'rghanish uchun xattaxtaga turli ma'nodagi, ya'ni turli so'z turkumiga kiradigan so'zlar aralash holda yozib qo'yiladi.

So'dar: kitob, qurdi, shifikor, sakkiz, qizil, qalam, o'qidi, yashil, binokor, o'nta, o'qituvchi, sakkiz.

O'quvchilar bilan quyidagicha savoljavob tashkil qilinadi: **So'zlarni o'qing.**

— Birinchi so'z nimani bildiryapti? Narsanimi, Shaxsnimi?

— Bu so'zga qanday so'roq beramiz?

— Ikkinchchi so'z harakatni bildiryaptimi yoki narsanimi?

— Bu so'zga qaysi so'roqni beramiz?

— Qaysi so'zlar sanoqni bildiryapti?

— Bu so'zlarga qaysi so'roqni beramiz?

— Qaysi so'zlar rangni bildiryapti?

— Bu so'zga qaysi so'roqni beramiz?

So'zlar ichidan Shaxsni (kash egasini) bildirayotgan so'zlarni topib, bir ustun qilib yozing.

— Ikkinchchi ustunga narsani bildirgan so'zlarni topib yozing.

— Uchinchi ustunga harakatni bildirgan so'zlarni topib yozing va hokazo.

O'quvchilar topshiriqni o'qituvchi yordamida bajarib bo'lgach, muammoli savol o'rtaga tashlanadi:

Yuqoridagi so'zlar nimasiga ko'ra farqlanyapti? o'quvchilar „ma'nosiga ko'ra» degan fikrni ayta olmasalar, o'qituvchi bu muammoni hal qiladi:

Bu so'zlar ma'nosiga ko'ra va so'roqlariga ko'ra farq qiladi. o'ylang, so'zlarni qaysi xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratamiz? So'zlarni nechta guruhga ajratish mumkin?

Savol-javoblardan ko'rinish turibdiki, o'quvchilar bilan suhbat rivojlantirilib borilyapti va o'quvchilar suhbat davomida yangiyangi raa'lumotlarni egallab bormoqdalar. 3—4sinflarga o'tganda bunday suhbatlar oxirida o'quvchilarning o'zlari xulosa chiqaradilar. Bunday suhbatlarda o'quvchilarning yoshi, saviyasidan tashqari, vaqt ham hisobga olinadi. Suhbat uzoq davom etsa, o'quvchilar charchab qoladilar, o'zlashtirish darjasini ham susayadi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida «Harfni his qilish» metodi. “Harfni yoki so'zni his qilish” metodida o'quvchilar tik turgan holatda bo'ladi. Eng oxirida turgan o'quvchi orqasiga o'qituvchi tomonidan ruchkaning orqa tomoni bilan harf yoki so'z yoziladi. Ot Sifat Son Fe'l.Keyingi o'quvchi oldingi o'quvchi

orqasiga yozadi.O`yin shu tariqa davom etadi. Birinchi partadagi o`quvchi o`zining orqasiga yozilgan harfni his qilib sinf yozuv taxtasiga kelib yozadi. Bu metodni ko`pincha nafaqat harf shaklida 4-5 sinf o`quvchilarida qo'llash mumin, balki 5-6 sinf o`quvchila

«**So`zdan so`z yasash»** o`yini. Bu o`yin o`quvchilarni so`z boyligini oshirishga, qayta xotirlashga va mantiqan fikrlashni kengaytirishga undaydi. Bu usul orqali bir so`zdan bir necha so`z tuzish o`yini o`quvchilarni ziyraklikka, hozirjavoblikka undaydi. Yozuv taxtasiga o`qituvchi tomonidan bir so`z yozib qo'yiladi.Masalan: O`zbekiston, Zanjir... Shundan so`ng o`qituvchi ma'lum vaqt davomida ana shu so`z harflaridan foydalangan holda boshqa so`z yasashlarini aytadi..Masalan, O`zbekiston – o`z, ek, bek, o`zbek, on, Zanjir – zar, zira, arz, ariza, jar, ranj kabilar.

Mustaqil ish metodi asosan o`rganilgan mavzuni mustahkanilash qismida mashqlar ishlash jarayonida qo'llaniladi. o`quvchilar o`qituvchining topshirig'i bilan mustaqil ishlarni og`zaki yoki yozma shaklda bajaradilar. Topshiriq qiyin va ko'p vaqtini olmasligi, o`quvchilar kuchi yetadigan qilib, muayyan vaqt ichida bajarishga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Mustaqil ishslash uchun topshiriq 1sinfdan boshlab beriladi va u asta-sekin marakkablashtirilib boriladi. „Yozgan so`zlaringizni lug'atdan tekshiring», „Rasmga qarab sabzavot nomlarini alifbo tartibida yozing», „Rasmni kuzating. Unda tasvirlangan narsalarni aniqlang va ularning nomini yozing» kabi topshiriqlar beriladi. Masalan, „O'lkamda bahor» mavzusida sujetli rasm beriladi. o`quvchilar rasmni kuzatib, narsa nomlarini yozadilar. Bunda bir o`quvchi 5 ta, ikkinchi o`quvchi 10 ta va hokazo so`z yozishi mumkin. Aslida rasmda 30 tadan ortiq narsa tasvirlangan: *tog'*, *osmon*, *bulut*, *qor*, *terak*, *tol*, *o'rik*, *ko'yak*, *shim*, *tufli*, *mayka*, *lenta*, *soch*, *bosh*, *qir*, *dala*, *o't*, *gul*, *qo'l*, *oyoq*, *quloq*, *ko'z*, *burun*, *yuz*, *og'iz*, *barmoq*, *bo'yin*, *qorin*, *yubka*, *jemper*, *daraxt* va hokazo. Bu o`quvchilarning e'tibor bilan kuzatishga — kuzatuvchanlikka o`rgatadi.

Xulosa qilib aytganda,innovatsion metodlar o`quvchilarning savodxon bo'lishiga, DTS talablariga qo'yilgan bilim va ko'nikmalarni oson va qiziqarli egallahlarida muhim rol o'ynaydi. Dars jarayonida o`quvchilarning diqqatini mavzuga qaratishda albatta o`zining samarasini ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni ona tili va o`qish darslarida qo'llash natijasida o`quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, o`zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofidagilarning fikrlarini hurmat qilishga, o`zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pedagogika. /prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida.-
T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010,- 400 b.
2. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O'qituvchi. 2010 y. 254-263